



TO'LEPBERGEN QAYIPBERGENOV ASARLARIDAGI VATANPARVARLIK MADHI

¹ Jiyemuratova Anar Raxim qizi, ² Xushanov Alisher Oydin o'g'li

¹ Ajiniyoz nomidagi NDPIning Turkiy tillar fakulteti "O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili", 2-D guruh talabasi

² Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Turkiy tillar fakulteti O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7227558>

ARTICLE INFO

Received: 03rd October 2022

Accepted: 10th October 2022

Online: 19th October 2022

KEY WORDS

To'lepbergen Qayipbergenov, roman, esse, vatanparvarlik, yozuvchi, "Qoraqalpog'noma,,

ABSTRACT

Ushbu maqolada To'lepbergen Qayipbergenovning "Qoraqalpog'noma,, roman esesidagi vatanparvarlik, millat sharafi tuyg'ularining ulug'lanishi haqida fikr yuritiladi.

Qoraqalpog' xalqining asl farzandlaridan biri bo'lmish To'lepbergen Qayipbergenov 1929-yili 7-may sanasida Kegeyli tumanida dunyoga keladi. U bolalik yillaridan ijodga qiziqib boradi va maktabni yaxshi natijalar bilan tugatgach Qoraqalpog'iston Pedagogika institutining rus tili va adabiyoti fakultetini tugatadi. Keyinchalik yosh ijodkor " Amudaryo,, jurnalida, "Qoraqalpog'iston yozuvchilar uyushmasi,,da mas'ul kotib, "Jas Leninshi,, gazetasi bosh muharriri, "Qoraqalpog'iston,, nashriyoti direktori, poligrafiya va kitob savdosi ishlari bo'yicha davlat kamiteti boshlig'i va "Qoraqalpog'iston yozuvchilar uyushmasi,, raisi kabi bir qancha yuqori mas'uliyatli lavozimlarda fidokorona xizmatlar qilgan. Uning bu xizmatlari ham albatta e'tiborsiz qolmagan. Unga O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq yozuvchisi kabi sharafli unvonlari berildi, Berdaq va Qashg'ariy nomidagi davlat mukofotlari, Sholoxov nomidagi xalqaro mukofoti bilan ham taqdirlandi. Shu bilan

birga yozuvchini 2003-yili "O'zbekiston qahramoni,, sharafli unvoniga loyiq deb topishgan. Iste'dodli yozuvchiga bundan tashqari "Do'stlik,, va "El- yurt hurmati,, ordenlarining berilishi uning naqadar jonkuyar va buyuk shaxslardan biri bo'lganligidan dalolat beradi.

Adib ijodga kirib kelaverishidagi dastlabki 5yilligida yaratgan asarlari kichik hajmli she'rlardan iborat bo'lib, dastlabki chop ettirilgan " Tilagim", "Kelinchakning quvonchi,, " Muallim,, she'rlaridan yosh shoir yashab turgan davr ajoyib yo'sinda gavdalantiriladi. Ulardagi asosiy mazmun mohiyat esa yosh ijodkorning o'y-hayollari, o'zi yashab turgan davrga bo'lgan fikr-mulohazalari, vatanparvarlik kabi tuyg'ulardan iborat.

Yozuvchining dastlabki bosmadan chiqqan asari 1956-yili "Sekretar,, nomli qissa bo'lib, qisqa fursatlarda haqiqiy egalarini topadi. T.Qayipbergenov asosan 60-yillardan boshlab nasr janrida ijod olamiga kirib keladi. Shu davr taqazosiga ko'ra u



umumiy hisobda qoraqalpoq, rus, o'zbek, turk va boshqa tillarda (sobiq SSSR ning deyarli barcha tillarida) ijod qiladi va 100 ga yaqin kitoblarning olam yuzini ko'rishiga erishadi. Keyinchalik yozuvchining "Sovuq tomchi,, , "Uyqusiz tunlar,, kabi birqancha qissalari , "Qoraqalpoq qizi" roman-dilogiyasi , "Qoraqalpoq dostoni,, roman-trilogiyasi va "Qoraqalpoqnoma ,, roman-essesini yozadi. Bu asar esse janrida bo'lib, asar faqatgina qoraqalpoq xalqi uchungina emas balki , hozirgi Markaziy Osiyo xalqlari adabiyotida ham alohida o'ringa egadir . Mustaqillik yillarida yozuvchining esse janrida yozgan asarlariga bo'lgan qarashlar yangicha tus oldi. Uning "U dunyodagi otamga xatlar,, , "Qalbim qomusi,, , "Turkiynoma ,, "Qoraqalpoqman tavakkalchiman ,, , "Qoraqalpoqning o'z qalpog'i bilan sirlashishi ,, kabi roman-esselari va boshqa asarlari qoraqalpoq adabiyotida yangi janrlarning yaratilishiga poydevor bo'ldi desak yanglishmagan bo'lamiz. Yozuvchining "Qoraqalpoq qizi,, romani bo'yicha o'zbek va qoraqalpoq tillarida teleradio postanovkalar , Toshkentdagi Muqimiy nomidagi teatrda spektakllar , "O'zbek film ,, kinostudiyasi tomonidan "Qaysar qiz ,, nomli kino film yaratiladi. Shu bilan birga "Familiya,, , "Berdaq ,, (Sahro bulbuli) , "Aydos bobo ,, kabi dramalari qoraqalpoq va o'zbek tillarida chop ettiriladi. Bu asarlar yaratilgach qisqa vaqt mobaynida yozuvchini shuhrat cho'qqisiga olib chiqadi. Oradan vaqtlar o'tib adibning 80 dan ortiq asarlari chop ettiriladi va o'zbek, rus, qozoq, turkman va boshqa birqancha tillarga tarjima qilinadi. T.Qayipbergenov asarlarining ko'pchiligida Vatan , unga sadoqat kabi tuyg'ular aks ettiriladi va ulug'lanadi. Masalan 1985-yili nashrdan chiqqan "Qoraqalpoqnoma,, roman-

essesini olaylik. Bu asar janr jihatidan esse shaklida bo'lsa ham undagi voqealar rivoji, tasvirlar uyg'unligi , qahramonlar tarkibi , uslubiy bo'yoqdorlik va shu kabi xususiyatlari bilan uni roman, haqiqiy badiiy asar deyish mumkin. Chunki unda qoraqalpoq xalqining paydo bo'lishi , xalq bo'lib shakllanishidan tortib , bugungi kunigacha bo'lgan hayot yo'li ijodiy mohirlik bilan yoritib berilgan. Asarda deyarli ikkita asosiy qahramonlar bo'lib , biri oddiy xalq bo'lsa boshqasi esa muallifdir. Unda keltirilgan afsona va rivoyatlar esa xalqning xarakterini har tomondan ko'rsatib berish uchun foydalaniladi. Bu afsonalar esa o'z navbatida yozuvchining oila a'zolari, bobosi, onasi , ko'cha biyi kabi insonlar tilidan bayon qilinadi. Yozuvchi bu rivoyatlarni shunchaki aytibgina qo'ymasdan ular zamiriga katta ma'nolarni ham joylaydi bu esa T.Qayipbergenovning o'z kasbining naqadar mohir egasi ekanligini yana bir bora isbot qiladi. Bu asar boshdan oyoq vatanparvarlik , sadoqat , buyuklik , adolatlilik , mehr-oqibat , nasihatgo'ylik , do'stlik , vijdon va mardlik kabi insoniy tuyg'ular bilan sug'orilgan. Asar : "Otang bolasi bo'lma, Odam bolasi bo'l ,, kabi maqol bilan boshlanishi esa asarda yoshlarga katta foydasi tegadigan pand-nasihatlarining ham mavjudligidan darak beradi. Asarda juda ko'plab qiziqarli afsonalar , voqea va hodisalar keltirib o'tilgan bo'lib , ular orasida meni e'tiborimni tortgani " KO'CHA BIYI AYTGAN AFSONA,, bo'ldi. Undagi voqealar yer yuzida insonlarning paydo bo'lib , tobora ko'payib borishi bilan boshlanadi. Keyinchalik esa parvardigor har bir millat va elatni bir biridan ajratib olishi uchun qo'lga katta nom yozilgan ro'yxatni olib, el oralab ketibdi. Yo'lidan uchragan xalqqa



ro'yxatidagi nomlardan birini berib parvardigorga xos o'ktam va baland ovoz bilan butun olam eshitgudek qilib uch marotaba jar soladi. Masalan : "sening noming rus, rus, rus ,, , "sening noming ingliz, ingliz, ingliz ,, , ,, Sening noming fransuz, fransuz, fransuz,, shaklida. Shunday qilib yer yuzidagi barcha millatga nom qo'yib , jar solib bo'lgach ularni ko'zdan kechirib yurar ekan Amu degan daryoning dengizga quyaverishida istiqomat qilayotgan qabilaga duch keladi. Ulardan kimligini so'raganda : " seni nom qo'yadi deb kutib yurgan bandalarimiz ,, degan javobni oladi.

Ammo uning ro'yxatida birorta ham nom qolmagan edi. Shu sababli ularga boshkiyimiga qarab "Qoraqalpoq,, degan nom beradi , ammo bu nomni olamga uch marotaba jar solmaydi , chunki hali ular kabi ko'zdan chetda qolib ketgan qabilalar bor bo'lishi mumkinligini va albatta ro'yxatiga kiritib , keyin jar solishini aytadi. Keyin esa ularni tark etadi. Ming afsuski u shu ketishdan qaytmaydi. Shu kundan boshlab qoraqalpoq xalqi balki xudoyim boshqa bir kantinent tarkibiga kiritilib ketgandirmiz deb o'ylab o'zlari el oralab qidirib yo'lga chiqadi. Va nihoyat , Evropa tarkibidagi " Pesheneg,, , "chernie kluboki ,, , " qora bo'rikilar,, degan nomlarni ko'rin parvardigor bizni "qoraqalpoq ,, deb nomlaganini unutib shunday deb yuborgan deya o'ylashadi. Ammo ularga nom berilgani haqida butun jahonga jat solinmaganligi bois ular qiyinchiliklarga duchor bo'ladi. Chunki nomsiz yashash, noma'lum yashashdir! Oxir oqibat ular sekin ovozda bo'lsa ham o'z nomiga ega bo'lgan maskanga qaytib borishadi va o'sha joyda nom qo'yuvchi insonni kutishadi. Shu kundan boshlab har kuni osmonga qarab , quloq tutib yurishgani uchun bo'lsa kerak

qoraqalpoq xalqining quloqlari boshqalarnikiga nisbatan katta deb hisoblanadi.

Yozuvchi shu tariqa o'z ona xalqining nomi qulog'iga uch marotaba jar solinmaganligi sababli butun olamga noma'lumligicha qolganligini aytadi va o'zining eng yirik asarlaridan yana birining nomini qo'yishda aynan xalqi nomidan foydalangani bejizga emas. Chunki uning " QORAQALPOQ AFSONASI,, , " QORAQALPOQ QIZI,, va " QORAQALPOQNOMA,, asarlari butun dunyo bo'ylab katta obro' va martabaga ega bo'ldi. Yozuvchi manashu uch asari zamirida olamga uch marotaba "qoraqalpoq ,, deya jar soldim deb aytib o'tadi. Yozuvchi o'zi ta'kidlab o'tishicha bu asarga kiritilgan afsona va rivoyatlarning hammasi ham tarixiy haqiqat deya qabul qilib bo'lmaydi. Undagi ko'pchilik hikoyalar dunyoda hali yozma adabiyot paydo bo'lmagan davrlarda xalqlarning tinch- totuv , ahil hayot kechirishi uchun ba'zi so'z ustalari tomonidan to'qilgan bo'lib , bizgacha og'izdan og'izga o'tib kelgan deyarli chala rivoyatlardan tashkil topganligini aytadi. Yozuvchi esa anashu rivoyatlarni birlashtirib , qayta tiklab , yaxlit holga keltirgan va o'z muxlislariga sovg'a qilgan. Xulosa qilin shuni aytish joizki T.Qayipbergenov barcha asarlari orqali millatimiz , ona Vatanimiz sharafi, uning naqadar buyuk va yuksak e'tiborga , sadoqat va vafodorlikka loyiq ekanligini eslatib turadi. Biz esa anashu muqaddas Vatan oldidagi burchimizni to'lig'icha ado etishimiz darkor. Zero Vatan bizni qachon va qayerda bo'lishimizdan qat'i nazar himoya qiladi , har qanday ayb ish qilsak ham bizni o'z bag'riga oladi. Biz esa unga zarar yetkazuvchi omillardan o'zimizni , nafaqat o'zimizni balki boshqa vatandoshlarmizni ham ogoh qilmog'imiz



darkor. Vatan rivoji va yuksalishi biz yoshlar qo'liga ishonib topshirilgan ekan bu ishonchni oqlashimiz, xuddi To'lepbergen Qayipbergenov kabi millatimiz nomini

butun jahonga baralla oshkor qilish bu har birimizning burchimizga aylanishi lozim. Anashundagina ona yurtimizga munosib farzand bo'lishga erishamiz.

References:

1. To'lepbergen Qayipbergenov, "QORAQALPOQNOMA" "G`ofur Gulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti" Toshkent 1990
2. K.Mambetov, K.Palimbetov, " 8-klass ushin sabaqliq", "BILIM" nashriyoti Nukus 2019
3. K.Allambergenov, Q.O`razimbetov, M.Bekbergenova, Z. Bekbergenova. " 11-sinf Qoraqalpoq adabiyoti", " BILIM" nashriyoti, Nukus 2018